

**USMONIYLAR IMPERIYASI BOSHQARUVI DAVRIDA SURIYADAGI
MA'MURIY ISLOHOTLAR**

**АДМИНИСТРАТИВНЫЕ РЕФОРМЫ В СИРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ
ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ**

**ADMINISTRATIVE REFORMS IN SYRIA DURING THE RULE OF THE
OTTOMAN EMPIRE**

Shirenova Nigora

TDSHU tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola Abdulhamid II davrida Suriyada amalga oshirilgan ma'muriy islohotlar va hukumatning despotik xususiyatlarini tahlil qiladi. Maqola Tanzimat davrining ma'muriy merosi va uning Suriyadagi inkor qilinmagan ta'siri bilan bog'liq masalalarni o'rganadi. Shu bilan birga, maqolada despotik boshqaruvning natijalari bo'lgan xavfsizlik va markazlashtirilgan boshqaruvni kuchaytirish, mahalliy elita va aholiga bosim ko'rsatish, siyosiy va ijtimoiy cheklovlarni kuchaytirish kabi holatlar muhokama qilinadi. Tanzimat davrining ma'muriy sohadagi islohotlari faqatgina Abdulhamid II hukmronligi davrida bekor qilinmagan, balki aksincha, XIX asr oxirlariga kelib o'z samarasini berganligi ushbu maqolada yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Usmoniylar imperiyasi, despotism, Tanzimat davri, ma'muriy islohotlar, markazlashgan boshqaruv, vali, Abdulhamid II, Munitsipal kengash.

Аннотация. В данной статье анализируются административные реформы, проведённые в Сирии в период правления султана Абдулхамид II, а также деспотический характер османского правительства. В работе рассматриваются вопросы, связанные с административным наследием эпохи Танзимата и его непрекращающимся влиянием на Сирию. Особое внимание уделяется последствиям деспотического управления, таким как усиление мер безопасности и централизации власти, давление на местные элиты и население, ужесточение политических и социальных ограничений. В статье подчёркивается, что административные реформы эпохи Танзимата не были отменены при Абдулхамиде II, напротив, к концу XIX века они продемонстрировали свою эффективность.

Ключевые слова: Османская империя, деспотизм, эпоха Танзимата, административные реформы, централизованное управление, вали, Абдулхамид II, муниципальный совет.

Abstract. This article analyzes the administrative reforms implemented in Syria during the reign of Sultan Abdulhamid II and examines the despotic nature of the Ottoman government. It explores the issues related to the administrative legacy of the Tanzimat era and its enduring influence on Syria. The paper also discusses the consequences of despotic

governance, such as the strengthening of security measures and centralized administration, the pressure exerted on local elites and the population, and the tightening of political and social restrictions. The study emphasizes that the administrative reforms of the Tanzimat period were not abolished during the reign of Abdulhamid II; on the contrary, by the end of the nineteenth century, they had demonstrated their effectiveness.

Keywords: *Ottoman Empire, despotism, Tanzimat era, administrative reforms, centralized administration, vali, Abdulhamid II, municipal council.*

Usmoniylar imperiyasi tarixining XIX asrning oxiri — XX asr boshlariga oid biror bir davri sulton Abdulhamid II (1876–1909) hukmronlik davridek mahalliy tarixshunoslikda salbiy va bir tomonlama baholanmagan. Tadqiqotlarda mazkur davr “o‘rta asr zo‘ravonligi”, “milliy tazyiq va ommaviy qirqinlar davri”, “harbiy-politsiyaviy terror va zo‘ravonlik rejimi” yoki “turk feodal tabaqalarining eng reaksiya qatlamlarini ifodalagan sulton Abdulhamid II diktaturasi” sifatida tavsiflanib, XIX asrning so‘nggi choragida Usmoniylar imperiyasida shakllangan tuzumning go‘yo butunlay salbiy mohiyatini ta’kidlashga urinilgan.

Shu bilan birga, Tanzimat davri bilan Abdulhamid II hukmronligi orasida izchillik va mantiqiy davomiylik mavjud emasligi, sulton-xalifaning mutlaq hokimiyatga asoslangan islohotlarga qarshi siyosatini yuritganligi haqidagi qarashlar ham ilgari surilgan. Biroq XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi Usmoniylar imperiyasi, ayniqsa, Suriya viloyatlarining ijtimoiy hayotini tavsiflovchi tarixiy manbalar va dalillar mazkur qarashlarning bir yo‘qlama ekanini ko‘rsatadi.

Sultonning mutlaq hokimiyati muayyan darajada despotik xususiyat kasb etgan, bu esa deyarli barcha Sharq monarxiyalariga xos umumiy jihat hisoblanadi. Biroq mazkur holatni ta’kidlash bilan birga, Abdulhamid II davrida davlat va jamiyat hayotining qator muhim sohalarida amalga oshirilgan islohotlar jarayonini soya ostida qoldirish ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bu islohotlar Usmoniylar imperiyasida modernizatsiya, ma’muriy boshqaruvni takomillashtirish va jamiyatning muayyan qismlarini zamonaviy dunyo bilan uyg‘unlashtirishga bo‘lgan intilishlarning amaliy ifodasi sifatida baholanishi lozim.

Abdulhamid hukmronligi davrining haqiqiy ko‘rinishini aniq anglash va uni oldingi hamda keyingi tarixiy davrlar bilan to‘g‘ri qiyoslash uchun turli manbalarni chuqur va tizimli tahlil qilish zarur. Aynan shu turdagi manbaviy tahlil mahalliy tarixshunoslikta hali yetarli darajada amalga oshirilmagan. Shu bois, Abdulhamidning Suriya bo‘yicha olib borgan siyosatini Tanzimat davri siyosati bilan qiyoslash nihoyatda muhimdir. Bunday qiyoslash viloyatlarni boshqarish tartibi, ichki siyosat, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda madaniy-ma’rifiy sohalarni rivojlantirish kabi yo‘nalishlardagi uzviylik va doimiylik masalalarini o‘rganish imkonini beradi.

Ko‘plab tadqiqotchilar, yuqorida ta’kidlanganidek, Usmoniylar imperiyasining ma’muriy sohada amalga oshirgan islohotlari natijalarini asosan salbiy jihatdan baholaganlar. Ularga ko‘ra, 1839 va 1856-yillardagi farmonlar hamda 1876-yilgi Konstitutsiyada ilgari surilgan

g'oyalar sulton Abdulhamid II hukmronligi davrida "qog'ozda qolgan" qoidalarga aylanib, amaliy ahamiyatini yo'qotgan. Ya'ni, Tanzimat davri arboblarning islohotparvar g'oyalari va ezgu niyatlari reaksiya qarashlarga ega sulton hamda korrupsiya botqog'iga botgan amaldorlar qarshiligi sababli samarasiz bo'lgan. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar islohotlar natijasini past baholab, ularning amaliy ahamiyatini inkor etganlar qayd etilishicha, eski siyosiy institutlar tugatilib, o'rnida hech qanday barqaror tizim yaratilmagani, eski usmoniy byurokratiyaning o'rnini yarim yevropalashgan, yarim sharqona, prinsipsiz va korrupsiyalashgan yangi ma'muriy apparat egallagani keltiriladi⁸.

Biroq XIX asrda Suriya viloyatlarida usmoniy mahalliy boshqaruv institutlarining shakllanish va takomillashish jarayonini o'rganish shuni ko'rsatadiki, davlat apparatining viloyat miqyosidagi faoliyati samaradorligi uzluksiz ravishda oshib borgan. Sulton Abdulhamid II hukmronligi davrida usmoniy markaziy hokimiyatning Suriya viloyatlaridagi ta'siri va mavqei Tanzimat davriga nisbatan ancha mustahkamlangan edi.

XIX asrning so'nggi choragida Suriya viloyatlaridagi boshqaruv tizimi bosqichma-bosqich takomillashib bordi. 1887-1888-yillarda mazkur hududda yangi ma'muriy-hududiy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, Quddus sanjog'iga⁹ ichki ishlar vazirligiga bevosita bo'ysunuvchi alohida ma'muriy okrug "mutasarriflik" maqomi qayta berildi. Shu bilan birga, Bayrut viloyati ham qayta tiklanib, uning tarkibiga Suriyaning shimoldagi Latakiya shahridan to janubdagi Hayfagacha bo'lgan sohilbo'yi hududlari, shuningdek, Falastinning shimoliy tumanlari (Nablus va Jenin) kiritildi.

XX asr boshlariga kelib, Usmoniylar davridagi Suriya ma'muriy jihatdan uchta yirik viloyatga — Halab, Suriya (Damashq) va Bayrut viloyatlariga hamda uchta alohida mutasarriflikka — Jabal Lubnon (Tog'li Livan), Quddus va Dayr Azzurga bo'lingan holatda shakllandi. Ushbu ma'muriy qayta tuzilishlar sulton Abdulhamid II davrida markaziy hokimiyatning viloyatlar ustidan nazoratini kuchaytirish, hududiy boshqaruvni ratsionallashtirish va mahalliy ma'muriy tizimni imperiyaning yagona boshqaruv siyosatiga integratsiya qilishga qaratilgan izchil harakatlarning amaliy ifodasi bo'ldi.

XIX va XX asrlar chorrahasida Suriya hududida quyi darajadagi yangi ma'muriy birliklar — nohiyalar soni sezilarli darajada ortib bordi. XIX asr boshlarida esa na nohiyalarda, na qozo (tuman)larda rasmiy ma'muriy tuzilmalar mavjud bo'lgan, butun hokimiyat mahalliy ayonlar, ya'ni nufuzli jamoa rahbarlari qo'lida to'plangan edi¹⁰. 1899-yilga kelib, Bayrut viloyati tarkibida 5 ta sanjoq, 21 ta qazo va 49 ta nohiya mavjud bo'lib, ma'muriy boshqaruv tizimi iyerarxik tarzda tashkil etilgan va har bir darajadagi hokimiyat organi o'zidan yuqori turuvchi ma'murga qat'iy bo'ysungan. Bu holat XIX asr oxirida Usmoniylar ma'muriy tizimining markazlashuv darajasi ortib, mahalliy hokimiyat tuzilmalari davlat apparati bilan uzviy bog'langan holda faoliyat yuritganini ko'rsatadi.

⁸ Котлов Л.Н. Становление национально-освободительного движения на Арабском Востоке (середина XIX в. 1908 г.) М., 1975. – С. 124-127.

⁹ Usmoniylar davrida sanjog' (turkchada—"sancak") ma'muriy bo'linma bo'lib, viloyat tarkibidagi kichik hududiy birlik hisoblangan.

¹⁰ Gerber H. A New Look at the Tanzimat: The Case of the Province of Jerusalem. - Palestine in the Late Ottoman Period., - P. 188-210.

Ma'muriy-hududiy o'zgarishlar natijasida viloyat ma'muriyati jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini yanada qat'iy va markazlashgan nazorat ostiga olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Markaziy hukumat amaldorlarni davlat tuzilmasidagi an'anaviy imtiyozlaridan mahrum etishga intila boshladi. Shu bilan birga, XIX asrning ikkinchi yarmida Suriya hududidagi usmoniy boshqaruv tizimining nisbiy muvaffaqiyati sifatida jamoat xavfsizligining sezilarli darajada oshgani va badaviy qabilalar tomonidan kelib chiqadigan tahdidning deyarli bartaraf etilganini ta'kidlash zarur. Bu holatni XIX asr boshlaridagi vaziyat bilan qiyoslaganda yaqqol ko'rish mumkin. Agar XVIII -XIX asrning birinchi yarmida Falastinning ko'plab tog'lik va tekislik hududlari, jumladan, Yezreyel vodiysi va sohilbo'yi mintaqalari badaviy qabilalarning muntazam hujumlari natijasida aholisi kam va iqtisodiy jihatdan sust bo'lib qolgan bo'lsa, XIX va XX asrlar chorrahasiga kelib vaziyat butunlay o'zgargan edi.

Bu haqda ingliz sayyohi Lourens Olifant "Kitobxonlar bu holatdan hayratda qolishadi: hozirda Yezreyel tekisligining deyarli har bir qarich yeridan faol ravishda foydalanilmoqda. Butun tekislik bo'ylab qurolsiz erkin sayr etish mumkin. Janubiy chekkada ozchilikni tashkil etgan badaviylar qora chodirlarini tikib yashamoqdalar, ammo endilikda ular qishloqlarga hujum qilmaydi, aksincha, o'zlari talanib va quvg'in qilinib yashamoqda, chunki yangi yer egalari ulardan yaylovlardan foydalanish uchun tilla tangada haq to'lashni talab qilmoqda. Shu tarzda, bugungi kunda tekislikda joylashgan qishloqlar aholisi to'la xavfsizlikda hayot kechirmoqda", deya qayd etgan¹¹.

Suriya sahrolarida Usmoniylar hokimiyat tuzilmalarining mustahkamlanishida 1900-yilda janubiy Falastinda Beer-Sheba ma'muriy markazining tashkil etilishi muhim strategik ahamiyat kasb etdi. Ushbu yangi boshqaruv markazining paydo bo'lishi natijasida Usmoniylar viloyat ma'muriyati Janubiy Falastin, Negev sahrosi hududlaridagi badaviy qabilalar o'rtasidagi yer-mulkka oid hamda hududiy nizolarni tartibga solish jarayonida faol vositachi sifatida qatnasha boshladi. Ayniqsa, XIX va XX asrlarda Azazma va Tiyaha qabilalari o'rtasida yer mulkini kimning nomiga rasmiylashtirish masalasida yuzaga kelgan ziddiyatni hal etish maqsadida Quddusdan Beer-Shebaga maxsus hukumat komissiyasining yuborilishi shunday faoliyatning yaqqol namunasi bo'ldi¹².

Beer-Sheba ma'muriy markazining tashkil etilishi bilan bir qatorda, badaviy qabilalar shayxlari o'zlariga tegishli yerlarni rasmiy tartibda ro'yxatdan o'tkazish ishiga faol kirishdilar. Shu bilan birga, ular zarur holatlarda Usmoniylar ma'muriy tuzilmalarining homiyligi va yuridik himoyasiga tayanish amaliyotini yo'lga qo'yidilar. Mazkur jarayonlar natijasida markaziy hokimiyatning mintaqadagi ta'sir doirasi kengaydi, qabila tuzilmalari esa asta-sekin davlat boshqaruvi tizimiga integratsiyalashuv jarayoniga kirishdi. Shu tariqa, Beer-Sheba markazining faoliyati Usmoniylar imperiyasi tomonidan Suriya va Falastin

¹¹ Oliphant L. *Haifa or Life in Modern Palestine*. Edinburgh, London, 1886. – P. 59.

¹² Gerber H. *A New Look at the Tanzimat: The Case of the Province of Jerusalem*. - *Palestine in the Late Ottoman Period.*, - P. 188-210.

cho'l hududlarida siyosiy barqarorlik va ma'muriy nazoratni ta'minlash yo'lidagi muhim qadam sifatida baholanadi.

Badaviylarga nisbatan siyosat nafaqat janubiy hududlarda, balki Suriya shimoli-sharqida ham izchil davom ettirildi. Xususan, Halab viloyati va Dayr Azzur sanjog'ida Usmoniylar ma'muriyati badaviy qabilalarini ishontirish, iqtisodiy bosim o'tkazish va zarurat tug'ilganda kuch ishlatish tahdidi orqali o'troq hayot tarziga o'tishga majbur etdi. Bu jarayon markaziy hokimiyatning sahro hududlarini nazorat qilish, soliqqa tortishni kengaytirish va harbiy xavfsizlikni ta'minlashdagi siyosiy strategiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib xizmat qildi.

Mazkur siyosat natijalarini Halabdagi Britaniya konsulining 1880-yildagi ma'lumotlari aniq tasdiqlaydi. U o'z hisobotida shunday yozadi: "Halabga eng yaqin joylarda Ferdun, Lahab va Shehemi qabilalari istiqomat qiladi. So'nggi paytlarda ularni yer haydashga majbur etishdi. Garchi ular yoz oylarida chorvalarini boqish maqsadida qisqa masofalarga ko'chib yurish uchun chodirlarini saqlab qolishsa-da, endilikda o'zlarining jangovar va talonchilik odatlaridan butunlay voz kechganlar. Ular jangovar otlarini sotib, o'rniga dehqonchilik ishlariga yaroqli hayvonlarni xarid qilganlar. Natijada ular turk hokimiyatiga to'liq bo'ysungan holda, muntazam soliqlarni to'lab kelmoqda hamda ular orasida mustaqillikka intilishning hatto eng kichik alomati ham kuzatilmayapti"¹³. Bu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, XIX asrning ikkinchi yarmida Usmoniylar imperiyasi sahro mintaqalarida badaviylarni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan integratsiyalash orqali o'zining siyosiy nazorat doirasini sezilarli darajada kengaytirishga muvaffaq bo'lgan. Shu tariqa, ko'chmanchi qabilalar asta-sekin o'troq dehqonchilik va soliqqa asoslangan iqtisodiy tizimga qo'shilib, markazlashgan boshqaruv tizimining ajralmas qismiga aylana bordilar.

Dayr Azzur sanjog'ida, Usmoniylar hukumatlari tomonidan Suriya shimoli-sharqidagi cho'l hududlarida mahalliy badaviylarni o'troq hayot tarziga o'rgatish maqsadida tashkil etilgan bu yerda, britaniyalik kapitan D.Styuart 1881-yilda o'nlab qishloqlarni, davlat amaldorlari tomonidan soliqlarni muntazam yig'ish tizimini, jandarmeriya va muntazam qo'shin bo'linmalarini aniqlagan¹⁴.

Usmoniylarlarning ta'siri Falastinning tog'li hududlarida ham sezilarli darajada mustahkamlandi. Bu yerda tartib o'rnatishda hal qiluvchi rol jandarmeriya zimmasiga tushgan edi: "Turk askarlari arab qishloqlari uchun xuddi o'latdek balo bo'lishdi. Odatda ikki nafar askarning o'zi butun qishloqni qo'rquvda ushlab turish uchun yetarli edi. Ular otlarda kelib, qishloq aholisi orasidan kimnidir hibsga olish haqidagi buyruqni qo'llarida olib kelishardi. Shayx esa ular talab qilgan odamni topshirishga majbur edi. U buni bajarmaguncha, askarlar qishloqda qolishar, oziq-ovqat zaxiralarini yo'qotishar, qishloq qo'ylarini so'yishar, shirin qahva ichishar, otlari esa somondan tozalangan suli bilan

¹³ Issawi Ch. The Fertile Crescent, 1800-1914. N. Y. - Oxf., 1988. - P. 59.

¹⁴ Issawi Ch. The Fertile Crescent, 1800-1914. N. Y. - Oxf., 1988. - P. 64.

oziqlanishar edi. Bularning barchasini qishloq aholisi har kuni yetkazib turardi,” — deb yozadi XIX asr oxiri voqealarining zamondoshi ¹⁵.

Taqqoslash uchun shuni ta’kidlash lozimki, XIX asrning 50-yillarida bu yerlarda Usmoniylar ma’muriyatining hokimiyati deyarli sezilmas edi. Jandarmeriya nazorati ostida qishloq ma’muriyati boshlig‘i saylovlar o‘tkazar, u soliqlar to‘lanishini ta’minlar, yerlarni ro‘yxatga olardi, mayda nizolarni hal qilar, yuqori turuvchi hokimiyatlarga barcha muhim voqealar haqida xabar berib turardi.

Suriya viloyatida jamoat xavfsizligi va tartibni saqlash masalasiga alohida e’tibor bergan yirik Usmoniylar davlat arbobi Midhat posho ¹⁶ 1878–1880-yillarda Suriya viloyatining vali (hokimi) lavozimini egallagan. Uning tashabbusi bilan mahalliy jamoat tartibini saqlash tizimi qayta tashkil etildi, yangi samarali otliq va piyoda politsiya hamda jandarmeriya bo‘linmalari tuzildi. Bu bo‘linmalar a‘zolari yaxshi maosh olgan va o‘zlarini intizomli davlat xizmatchilari sifatida ko‘rsatganlar ¹⁷.

Xulosa. Abdulhamid II hukmronligi davrida Suriyada amalga oshirilgan ma’muriy islohotlar Usmonli imperiyasining siyosiy, ijtimoiy va institutsional hayotida tub burilish yasagan jarayon bo‘lib, u imperiya boshqaruv tizimining keyingi evolyutsiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Mazkur davrda amalga oshirilgan islohotlar natijasida davlat boshqaruvi, mahalliy hokimiyat va markaziy nazorat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar yangi mazmun kasb etgan, shu orqali Suriya viloyatlarida siyosiy barqarorlikni saqlab qolish va jamiyatning turli qatlamlari o‘rtasidagi ijtimoiy muvozanatni ta’minlashga erishilgan.

Ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan “despotik” yoki “avtoritar” deb baholangan Abdulhamid II boshqaruv modeli aslida o‘sha davrning geosiyosiy va ichki sharoitlarini inobatga olgan holda shakllangan davlat barqarorligini saqlashga yo‘naltirilgan qat’iy siyosiy strategiya edi. Bu siyosat imperiyaning markaziy hududlari bilan bir qatorda, uzoq provinsiyalar, jumladan, Suriya, Falastin va Hijoz singari muhim strategik mintaqalarda ham samarali boshqaruv mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan edi.

Sulton Abdulhamid II o‘z siyosatini Tanzimat davrida boshlangan islohotlarning institutsional merosiga tayangan holda olib bordi. U markaziy boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, viloyatlar ustidan real nazoratni kuchaytirish, ma’muriy apparatni yangilash va mahalliy elitani davlat xizmatiga integratsiya qilish orqali markazning ta’sir doirasini kengaytirdi. Natijada, Suriyada davlat boshqaruvi tizimi butunlay boshqa qiyofaga kirdi. Xususan, soliqlar yig‘imi barqarorlashdi, korrupsiyaga qarshi kurash jiddiy tus oldi, infratuzilma (yo‘llar, telegraf liniyalari, ma’muriy binolar) rivojlandi hamda mahalliy boshqaruv apparatida malakali kadrlar shakllandi.

¹⁵ Gerber H. A New Look at the Tanzimat: The Case of the Province of Jerusalem. - Palestine in the Late Ottoman Period., p. 188-210.

¹⁶ Midhat posho 1878-yilda surgundan qaytgach, Suriya valisi etib tayinlangan, 1880 yilda esa Izmir valisi lavozimiga o‘tkazilgan. Keyinchalik u hibsga olinib, 1876-yilda taxtdan ag‘darilgan sulton Abdulazizning o‘ldirilishini tashkil etishda ayblangan.

¹⁷ Фадеева И.Л. Мидхат-паша. Жизнь и деятельность. М., 1977. – С. 104-110.